



O'zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab
ta'limi vazirligi

ISSN: 2992-9008
UDK: 37

TA'LIM VA TARAQQIYOT

Ilmiy-uslubiy jurnali



2026-YIL 5-SON

www.journal.namspi.uz

Bosh muharrir: Namangan davlat pedagogika instituti rektori B.E.Xusanov
Mas'ul muharrir: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor M.R.Qodirxonov
Mas'ul muharrir o'rinbosari: Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i J.A.Yuldashev

TAHRIR HAY'ATI

Aniq va tabiiy fanlar: k.f.d., prof. Sh.Abdullayev, f-m.f.d., dots. R.Xakimov, k.f.d., prof. N.Vohidova, k.f.d., dots. M.Qodirxonov, b.f.d., dots. A.Batashov, f-m.f.n., dots., T.Abdullayev, p.f.n., dots. M.Eshnazarova, p.f.n., dots. G'.Nafasov, p.f.n., dots. M.Boltayeva.

Texnika fanlari: t.f.d., prof. A.Umarov, t.f.d., prof. A.Qayumov, PhD, dots. Sh.Xudoyqulov, PhD, dots. Abdunazarov.

Ijtimoiy-gumanitar fanlar: s.f.d., prof. T.Fayzullayev, tar.f.d., prof. A.Rasulov. f.f.d., prof. M.Ismoilov, i.f.d., dots. N.Sotivoldiyev, t.f.n., dots. A.Isoqboyev, f.f.n., dots. O.Mamatov, t.f.n., dots. Z.Haydarov, PhD. J.Yuldashev, PhD. A.Abdullayev.

Pedagogika fanlari: p.f.d., prof. B.Xodjayev, p.f.d., prof. X.Najmiddinova, p.f.d., prof. T.Ismoilov, p.f.d., prof. S.Abdullayev. p.f.d., prof., M.Y.Sobirova, p.f.d., prof., R.Zamilova, p.f.d., prof. Sh.Xujamberdiyeva, p.f.d., dost. M.Asqarova, PhD, dots. M.Asranboyeva.

Filologiya fanlari: fil.f.d., prof. N.Uluqov, fil.f.d., prof. H.Usmanova, f.f.d., dots. X.Shokirova, p.f.n., dots. S.Misirov, p.f.n., dots. Sh.Ubaydullayev, PhD., dots. P.Lutfullayev, PhD., dots. M.Yakubbayev.

Texnik muharrir: R.Tursunov

Tahririyat manzili: Namangan shahri, Uychi ko'chasi, 316-uy.

Pochta indeksi: 160136, **Faks:** (0369) 227-27-21,

Email: Info@namspi.uz

"Ta'lim va taraqqiyot" ilmiy-uslubiy jurnali elektron to'plam sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (AOKA)ning 2022-yil 25-oktabrdagi № 045044 raqamli guvohnomasi asosida chop etiladi. Jurnal Oliy Attestatsiya komissiyasining 2024-yil 30-noyabrda (№ 364/5) yig'ilishi qaroriga asosan pedagogika fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan. UDK: 37, Xalqaro standartlashtirish raqami (ISSN): 2992-9008.

Maqolalarning ilmiy saviyasi va keltirilgan ma'lumotlar uchun mualliflar javobgar hisoblanadi.

NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI 2026

4K MODELIGA ASOSLANGAN DARSLIK LARNING AFZALLIKLARI

Nuraliyeva Kamola Isaqali qizi

Namangan davlat pedagogika instituti doktoranti

knuraliyeva4980@gmail.com 93-497-49-80

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy ta'lim jarayonida 4K modeliga asoslangan darsliklarning pedagogik imkoniyatlari va afzalliklari tahlil qilinadi. 4K modeli tarkibidagi ko'nikmalar o'quvchilarning nafaqat fan bo'yicha bilimlarini, balki mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarga yechim topish, o'z fikrini asoslash, jamoada ishlash va ijodiy yondashish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Tadqiqotda 4K modeliga asoslangan darsliklarning mazmuniy, metodik va didaktik xususiyatlari tahliliy yondashuv asosida o'rganildi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, bunday darsliklar an'anaviy reproduktiv ta'limdan ko'nikmaviy ta'limga o'tishni ta'minlash, o'quvchini ta'lim jarayonining faol subyektiga aylantirish hamda amaliy va hayotiy vaziyatlar asosida bilimlarni qo'llash imkoniyatini kengaytiradi.

Kalit so'zlar: 4K modeli, darslik, tanqidiy fikrlash, kreativlik, kommunikatsiya, hamkorlik, ko'nikma, zamonaviy ta'lim, yangi avlod darsliklari, interfaol ta'lim.

ПРЕИМУЩЕСТВА УЧЕБНИКОВ, ОСНОВАННЫХ НА МОДЕЛИ «4К»

Аннотация: В данной статье анализируются педагогические возможности и преимущества учебников, основанных на модели 4К, в современном образовательном процессе. Навыки, составляющие модель 4К, способствуют развитию у учащихся не только предметных знаний, но и навыков самостоятельного мышления, поиска решений в проблемных ситуациях, аргументации собственной позиции, работы в команде и творческого подхода. В исследовании на основе аналитического подхода изучены содержательные, методические и дидактические особенности учебников, основанных на модели 4К. Результаты показывают, что такие учебники способствуют переходу от традиционного репродуктивного обучения к компетентностно-ориентированному обучению, превращению учащегося в активного субъекта образовательного процесса, а также расширяют возможности применения знаний на основе практических и жизненных ситуаций.

Ключевые слова: модель 4К, учебник, критическое мышление, креативность, коммуникация, сотрудничество, навыки, современное образование, учебники нового поколения, интерактивное обучение.

ADVANTAGES OF TEXTBOOKS BASED ON THE 4K MODEL

Annotation: This article analyzes the pedagogical potential and advantages of textbooks based on the 4C model in the modern educational process. The skills comprising the 4C model contribute not only to the development of students' subject knowledge but also to their ability to think independently, find

solutions to problematic situations, justify their opinions, work collaboratively, and approach tasks creatively. The study examines the content-related, methodological, and didactic characteristics of textbooks based on the 4C model through an analytical approach. The results demonstrate that such textbooks facilitate the transition from traditional reproductive education to skills-based learning, transform students into active participants in the educational process, and expand opportunities for applying knowledge to practical and real-life situations.

Keywords: 4C model, textbook, critical thinking, creativity, communication, collaboration, skills, modern education, next-generation textbooks, interactive learning.

KIRISH

Bugungi kunda ta'lim tizimi oldida o'quvchilarga tayyor bilimlarni berishdan ko'ra, o'quvchilardagi bilimlarni turli vaziyatlarda qo'llash, muammoni individual hal qilish, axborotni tahlil qilish va boshqa insonlar bilan samarali hamkorlik qilish ko'nikmalarini shakllantirish vazifasi turibdi. Shu nuqtayi nazardan, XXI asr ko'nikmalarini ta'lim mazmuniga integratsiya qilish zamonaviy pedagogikaning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. 4K modeli ana shu ehtiyojga javob beruvchi pedagogik yondashuvlardan biri bo'lib, uning asosini tanqidiy fikrlash, kreativlik, kommunikatsiya va hamkorlik tashkil etadi. Tadqiqotlarda ushbu to'rtta ko'nikma o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, ijodiy faoliyati, samarali muloqoti va jamoaviy faoliyatini rivojlantirish bilan bog'liqligi ta'kidlangan. 4K modelining darslik mazmuniga singdirilishi ayniqsa muhimdir. Chunki darslik o'quv jarayonining asosiy didaktik vositalaridan biri bo'lib, undagi topshiriqlar, savollar, muammoli vaziyatlar, amaliy mashqlar va ijodiy faoliyatlar o'quvchining fikrlash faoliyatini bevosita yo'naltiradi. Yangi avlod darsliklarining 4K modeli asosida ishlab chiqilishi o'quv materiallarini shunchaki o'zlashtirish emas, balki ularni tahlil qilish, baholash, qayta ishlash va amaliyotda qo'llash imkonini beradi. Xususan, "Tabiiy fanlar" darsliklarining 4K modeli asosidagi tuzilishi va mazmuni bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda ham ushbu yondashuvning metodik imkoniyatlari ko'rsatib berilgan. Shundan kelib chiqib, tadqiqotning asosiy maqsadi — 4K modeliga asoslangan darsliklarning pedagogik va

metodik afzalliklarini aniqlash hamda ularning o'quvchilarda zamonaviy ko'nikmalarni shakllantirishdagi imkoniyatlarini ilmiy jihatdan asoslashdan iborat.

METODOLOGIYA

Tadqiqotda nazariy-tahliliy va qiyosiy metodlardan foydalanildi. Avvalo, 4K modeli mohiyatiga oid ilmiy-pedagogik adabiyotlar hamda zamonaviy darsliklarning metodik xususiyatlari o'rganildi. Shuningdek, 4K modelining alohida komponentlari – tanqidiy fikrlash, kreativlik, kommunikatsiya va hamkorlikning darslik topshiriqlarida namoyon bo'lish shakllari tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida quyidagi mezonlar asos qilib olindi:

Tanqidiy fikrlash mezoni – o'quvchining axborotni tahlil qilishi, taqqoslashi, dalillarni baholashi va xulosa chiqarishiga yo'naltirilgan topshiriqlar mavjudligi.

Kreativlik mezoni – o'quvchining yangi g'oya, muqobil yechim va ijodiy mahsulot yaratishiga imkon beruvchi topshiriqlarning mavjudligi.

Kommunikatsiya mezoni – o'quvchining o'z fikrini og'zaki va yozma ravishda aniq ifodalashi, savol berishi va fikr almashishiga yo'naltirilgan faoliyatlarning mavjudligi.

Hamkorlik mezoni – juftlikda yoki kichik guruhlarda ishlash, vazifalarni taqsimlash, umumiy qaror qabul qilish va jamoaviy natijaga erishishga yo'naltirilgan topshiriqlarning mavjudligi.

Tahlil davomida O'zbekiston ta'lim amaliyotida 4K modelidan foydalanishga bag'ishlangan zamonaviy ilmiy-metodik ishlar ham o'rganildi. Mavjud tadqiqotlarda 4K modelining darslarni interfaol tashkil etish, o'quvchilarning mustaqil fikrlashi va ijodkorligini rivojlantirishdagi imkoniyatlari qayd etilgan.

NATIJALAR

Tadqiqot natijalari 4K modeliga asoslangan darsliklarning bir qator muhim afzalliklarga ega ekanligini ko'rsatdi. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish-4K modeliga asoslangan darsliklarda o'quvchiga faqat bitta to'g'ri javobni topishga qaratilgan

reproduktiv savollardan tashqari, "Nima uchun?", "Siz qanday fikrdasiz?", "Qaysi yechim samaraliroq?", "Dalillar asosida izohlang" kabi fikrlashni talab qiluvchi topshiriqlar beriladi. Bunday topshiriqlar o'quvchini tayyor ma'lumotni yodlashdan ko'ra, uni tahlil qilish va o'z nuqtayi nazarini asoslashga undaydi. Natijada o'quvchining mantiqiy va mustaqil fikrlash ko'nikmalari shakllanadi. Kreativlikni shakllantirish bu 4K modelining muhim jihatlaridan biri — o'quvchiga yagona javob bilan cheklanib qolmaslik imkonini berishidir. Darsliklarda rasm asosida hikoya tuzish, muammoning bir nechta yechimini taklif qilish, loyiha yaratish, yangi mahsulot yoki g'oya ishlab chiqish kabi ijodiy topshiriqlardan foydalanish mumkin. Bunday yondashuv o'quvchining tasavvuri va ijodiy tafakkurini rivojlantirib, uni yangi g'oyalar yaratishga undaydi. Zamonaviy tadqiqotlarda ham 4K modeli asosidagi dars jarayonlari o'quvchilarning ijodiy ko'nikmasini rivojlantirish, mustaqil fikrlash va innovatsion yondashuvini kuchaytirishi ta'kidlangan. Kommunikativ ko'nikmani rivojlantirish ham 4K modeliga asoslangan darsliklarda o'quvchining o'z fikrini og'zaki va yozma ifodalashiga katta e'tibor qaratiladi. Savol-javoblar, munozaralar, taqdimotlar, matn yaratish va o'z fikrini himoya qilish kabi topshiriqlar kommunikativ ko'nikmani shakllantiradi. Bu jarayonda o'quvchi nafaqat so'zlash, balki boshqalarning fikrini tinglash, fikrga munosabat bildirish va muloqot madaniyatiga rioya qilishni ham o'rganadi. Hamkorlikda ishlash ko'nikmasini shakllantirishda an'anaviy darsliklarda individual topshiriqlar ustuvor bo'lsa, 4K modeliga asoslangan darsliklarda juftlik va guruh bilan bajariladigan faoliyatlar muhim o'rin egallaydi. Masalan, o'quvchilarga muayyan muammoni birgalikda hal qilish, loyiha ishlab chiqish, ma'lumotlarni taqsimlab o'rganish va umumiy xulosa tayyorlash topshirilishi mumkin. Bu o'quvchilarda vazifalarni taqsimlash, boshqalarning fikrini hurmat qilish, kelishuvga erishish va umumiy natija uchun mas'uliyatni his qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bu esa o'quvchini ta'lim jarayonining faol subyektiga aylantirishda 4K modeliga asoslangan darsliklarning yana bir muhim afzalligi — o'quvchining darsdagi faolligini oshirishidir.

Bunda o'qituvchi asosiy axborot manbai bo'lishdan ko'ra, o'quv faoliyatini tashkil etuvchi va yo'naltiruvchi rolni bajaradi. O'quvchi esa savol beradi, izlanadi, fikr bildiradi, dalillar keltiradi, guruh bilan ishlaydi va o'z faoliyatining natijasini baholaydi. Shu sababli ta'lim jarayoni o'quvchiga yo'naltirilgan xarakter kasb etadi. Hamda bilimlarni hayotiy vaziyatlarda qo'llash imkoniyatida 4K modeliga asoslangan darsliklarda real hayot bilan bog'langan vaziyatli topshiriqlardan foydalanish ham o'quvchining nazariy bilimlarini amaliy faoliyat bilan bog'lashiga yordam beradi. Masalan, tabiiy fanlarda ekologik muammolarni tahlil qilish, matematika darslarida kundalik hayotga oid hisob-kitoblarni bajarish yoki ona tili darslarida real kommunikativ vaziyatlarga mos matn yaratish mumkin. Bunday topshiriqlar o'quvchining funksional savodxonligini rivojlantirishga xizmat qiladi.

MUHOKAMA

Olingan natijalar 4K modeliga asoslangan darsliklarning an'anaviy darsliklardan farqli ravishda bilimni tayyor shaklda berish bilan cheklanmasligini ko'rsatadi. Ularning asosiy afzalligi o'quvchini fikrlash, izlanish, muloqot qilish va hamkorlikdagi faoliyatga jalb etishdan iborat. 4K modelining har bir komponenti alohida emas, balki o'zaro bog'liq holda namoyon bo'ladi. Masalan, guruhli topshiriqni bajarish jarayonida o'quvchi boshqa ishtirokchilar bilan kommunikatsiyaga kirishadi, muammoni tanqidiy tahlil qiladi, ijodiy yechim taklif etadi va jamoaviy qaror qabul qiladi. Demak, bitta topshiriqning o'zi bir vaqtning o'zida bir nechta ko'nikmani rivojlantirishi mumkin. O'zbekiston ta'lim amaliyotida olib borilayotgan tadqiqotlar ham 4K modelining boshlang'ich ta'lim, o'qish savodxonligi va turli fanlarni o'qitishda qo'llanish imkoniyatlari kengligini ko'rsatmoqda. Xususan, o'qish savodxonligi darslarida matnni tahlil qilish, savol-javob, ijodiy topshiriqlar, bahs-munozara va guruhli ishlar 4K ko'nikmalarini rivojlantirish vositasi sifatida qaralmoqda. Shu bilan birga, 4K modeliga asoslangan darsliklardan samarali foydalanish faqat darslik mazmuniga bog'liq emas. O'qituvchining metodik tayyorgarligi, darsni to'g'ri tashkil etishi, baholash

mezonlarining ko'nikmaviy yondashuvga mosligi ham muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun yangi avlod darsliklarini joriy etish jarayonida pedagoglarning metodik ko'nikmalarini rivojlantirish ham parallel ravishda olib borilishi lozim.

XULOSA

4K modeliga asoslangan darsliklar zamonaviy ko'nikmaviy ta'lim talablariga javob beradigan samarali pedagogik vosita sifatida namoyon bo'lmoqda. Tadqiqot natijalari ularning asosiy afzalliklari o'quvchilarda tanqidiy fikrlash, kreativlik, kommunikativlik va hamkorlik ko'nikmalarini tizimli ravishda rivojlantirish imkoniyati bilan bog'liqligini ko'rsatdi. Bunday darsliklar o'quvchini tayyor bilimni qabul qiluvchi subyekt sifatida emas, balki bilimni izlovchi, tahlil qiluvchi, yaratadigan va amaliyotda qo'llaydigan faol ishtirokchi sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, muammoli, ijodiy, hayotiy va guruhli topshiriqlarning darslik mazmuniga kiritilishi o'quvchilarning XXI asr ko'nikmalarini rivojlantirish uchun muhim metodik imkoniyat yaratadi. Shu asosda 4K modeliga asoslangan darsliklarni takomillashtirishda topshiriqlarning ko'nikmaviy yo'nalishini kuchaytirish, real hayotiy vaziyatlardan foydalanish, ochiq turdagi savollarni ko'paytirish, loyiha va guruhli faoliyatlarni kengaytirish hamda o'quvchilarning o'z-o'zini baholash mexanizmlarini joriy etish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Esonova, R. I. (2025). Methodological Foundations of Organizing "Natural Sciences" Based on the "4K" Model. *International Journal of Science and Technology*, 2(2), 57–66.
2. Kadirov, T. (2025). Darslarni tashkil qilishda 4K modelini qo'llash imkoniyatlari. *Maktabgacha va maktab ta'limi jurnali*.
3. Sattorova, M. I. (2024). The Role and Significance of the 4K Model in Teaching in Primary School. *Oriental Journal of Education*, 265–268.
4. Parpiyev, O. O., & Yo'ldasheva, N. (2026). O'qish savodxonligi darslarida 4K modelini qo'llash usullari. *Pedagogik ta'lim va tarbiya transformatsiyasida fundamental, amaliy va innovatsion tadqiqotlarning konseptual asoslari*, 458–462.
5. Dilova, N. (2024). Boshlang'ich sinf o'quvchilari ta'limi muvaffaqiyatini ta'minlashda "4K" modelining imkoniyatlari. *Universal xalqaro ilmiy jurnal*, 253–256.